



ALEKSANDR FAYNBERGNING "OY MANZARASI" SHE'RIGA TASNIF

Ochilova Xurshida Norsaidovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
fakulteti 2-bosqich talabasi
Xurshidaochilova317@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikki xalq: o'zbek va rus xalqi farzandi Aleksandr Faynbergning "Oy manzarasi" she'ri tahlil qilinadi. Rusiyazon o'zbek shoiri she'rlarida har bir holatni jonli va hayotiy tasvirlay olishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham u nafaqat bu ikki xalq, balki butun dunyo kitobxonlari uchun sevimli va ardoqli shoirdir.

Kalit so'zlar: Baliqchi roli, tasvirlash mahorati, teranlik, tungi taqqoslash.

Kirish. Avvalambor, shuni ta'kidlash joizki, shoir Aleksandr Faynberg rusiyazon bo'lsa-da, O'zbekistonda tug'ilgan va ijod qilgan. U 1939-yilda Toshkentda tug'ilgan. Darhaqiqat, shoirning ijodi ham juda sarmahsul. Uning "Velotrekklar", "Etyud", "Bir lahza", "She'rlar", "Uzoq ko'priklar", "Osmon muhri", "Qisqa to'lqin", "Dengiz", "Erkin sonetlar", "Yig'lamang, yo'l", "Kon", "Barg" singari to'plamlari mavjud. Faynbergning she'rlarida juda ko'p yorqin hazil bor. "Rubayat torlari" she'rida u o'zbek choyxonasini o'zgaras palov bilan shunday zavq bilan tasvirlaganki, uni tabassumsiz o'qib bo'lmaydi.

"Oy manzarasi" she'ri ham shoir ijodida salmoqli o'rin egallaydi. U, ayniqsa, tabiat va sokinlikni shu darajada tasvirlaganki, o'zingizni go'yo o'sha muhitda turgandek his qilasiz:

Tungi osmon chetida turib
Baliqchi jim, yolg'iz o'y surar.
Yelkasida yoyilar to'ri,
Oy nurida borliq yarqirar.

O'zingizni o'sha muhitda his qilgandirsiz — tungi osmon ostida, dengiz ustida xayolga cho'mgancha o'tiribsiz. Yoki tasavvuringizda allaqachon o'sha manzarani chizgandirsiz... Ha, shoir so'z orqali surat chizgan go'yoki, shuningdek, bu aynan Aleksandr Faynberg ijodiga xos mahorat:

Osiladi yulduzlar to'rga,
Kumush qayiq, hovuch – hovuch zar.
Eshaklarni ko'mgancha nurga
Mavjlanadi parsimon qumlar.



Qanday ajoyib o'xshatish! Tasavvur qiling, baliqchi baliq tutyapti, ammo to'rga baliq emas, yulduzlar ilinyapti! Qayiq ham oddiy qayiq emas — kumush qayiq! Balki dengiz ustida turganligi uchun shunday o'xshatish qilingandir... Ammo "hovuch-hovuch zar" nima ekan?! Buning javobi esa keyingi misralarda oydinlashadi:

"Eshkaklarni ko'mgancha nurga,
Mavjlanadi parsimon qumlar".

Shoir go'yoki musavvir, faqat ish quroli mo'yqalam emas, so'z! Qumlarning eshkakka tegib o'tishini eshkak nurga ko'milganiga, qum zarralarini esa hovuch-hovuch zarga o'xshatish qanchalar nozik qiyoslovdir!

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynbergning nafaqat ushbu she'ri, balki barcha asari shunday o'xshatishlarga boydir. Uni o'qigan sari insonda dunyoqarash o'sadi, fikrlari teran va tiniq bo'lib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Oy manzarasi" Aleksandr Faynberg
2. Alexander Fainberg "An Attempt to Autobiography".
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-sheriyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg